IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

O‘ZBEKISTONDA QONUN IJODKORLIGI JARAYONIDA PARLAMENTNING ROLI: NORMATIV-HUQUQIY BAZANING TAKOMILLASHUVI TAHLILI

Qurolboyeva Maftuna Olimjon qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 3-bosqich talabasi,
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-3443-2031
Email: maftunaqurolboyeva237@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20457466

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonun ijodkorligidagi institutsional roli, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar sifati va qonunlarga rioya etilishini ta’minlash mexanizmlari tahlil etiladi. 2017-2023-yillardagi huquqiy islohotlar jarayonida qonunchilik bazasining takomillashtirish tendentsiyalari, muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi .
Kalit so‘zlar: qonun ijodkorligi, Oliy Majlis, normativ-huquqiy baza, qonun sifati, huquqiy islohot, parlament nazorati, antikorrupsion ekspertiza.

Abstract: This article analyzes the institutional role of the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan in the law-making process, the quality of normative legal acts, and mechanisms for ensuring compliance with legislation. Trends, problems and promising directions for improving the legislative framework during the 2017-2023 legal reforms are scientifically substantiated.
Keywords: law-making, Supreme Assembly, regulatory framework, quality of legislation, legal reform, parliamentary oversight, anti-corruption expertise.

KIRISH

Bugungi kunda huquqiy davlatni shakllantirish jarayonida parlamentning o‘rni faqat qonun qabul qilish bilan cheklanmaydi. U normativ-huquqiy tizimning yo‘nalishini belgilovchi asosiy institutlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. 2023-yilda yangilangan Konstitutsiya Oliy Majlis vakolatlarini yanada aniqlashtirib, uning qonunchilikdagi mas’uliyatini kuchaytirdi [1]. Bu holat parlamentning huquqiy siyosatni shakllantirishdagi institutsional rolini kuchaytirganini ko‘rsatadi, ya’ni u endi faqat “qonun chiqaruvchi organ” emas, balki huquqiy tartibga solish strategiyasini belgilovchi subyektga aylanmoqda. Qonun ijodkorligi oddiy texnik jarayon emas. U ijtimoiy ehtiyojlar bilan davlat tartibga solish mexanizmlarini bog‘laydigan murakkab tizim hisoblanadi. Ya’ni, qonun faqat yozilmaydi, balki u real hayotda qanday ishlashi ham shu jarayonning bir qismi sanaladi [2]. Qonun matni bilan uning amaliy ijrosi o‘rtasidagi muvozanat qonunchilik sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. 2017-yildan boshlab boshlangan islohotlar qonunchilik tizimiga yangi yondashuv olib kirdi. Endi asosiy e’tibor hujjatlar soniga emas, ularning amaliy natijadorligiga qaratila boshlandi [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston Oliy Majlisi 2003-yildan ikki palatali tuzilishga o‘tdi: Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata). Qonunchilik tashabbusi huquqi Prezident, Vazirlar Mahkamasi, palata deputatlari va senatorlar, shuningdek oliy sud organlari va Bosh prokurorga berilgan [4]. Ikki palatali tizim qonun sifatini ta’minlashda muhim filtr vazifasini bajaradi. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan loyiha Senatda qayta ko‘rib chiqiladi, bu qonun matnidagi kamchilik va ziddiyatlarni bartaraf etishga imkon beradi. “Normativ-huquqiy hujjatlar

to‘g‘risida”gi Qonun esa loyihani ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish va kuchga kirish tartibini batafsil belgilaydi [5]. Ikki palatali nazorat mexanizmi 2018-2023-yillar davomida ancha faollashdi: Senat tomonidan o‘zgartirishlar bilan qaytarilgan qonun loyihalari soni yildan-yilga ortib bordi. Bu holat qonunchilik jarayonida sifat filtrlari ishlay boshlaganining yorqin ko‘rsatkichidir. Biroq amaliyotda palatalararo muvofiqlashtirishning samaradorligi ko‘pincha deputatlarning huquqiy malakasiga va lobbichilik ta’siriga bog‘liq bo‘lib qolmoqda, bu esa tizimni bir xil darajada ishlatishni qiyinlashtiradi. Shu sababli deputatlar va senatorlarning huquqiy tayyorgarligi darajasini oshirish, mustaqil ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifaga aylanishi lozim.

Qonun loyihasini ishlab chiqish bir necha izchil bosqichni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy muammoni aniqlash va huquqiy tartibga solish zarurligini asoslash; konseptual hujjat tayyorlash; loyihani yozish; davlat va antikorrupsion ekspertizasidan o‘tkazish; jamoatchilik muhokamasi; palatalar tomonidan ko‘rib chiqish; Prezident tomonidan imzolash; rasmiy e’lon qilish. Ushbu bosqichlar “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunda va Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida mustahkamlangan. Amalda, biroq, loyihalar ba’zan qisqartirilgan muddatlarda ko‘rib chiqilishi, muhokama bosqichining nominal xarakter kasb etishi kabi hollar uchrab turadi [6]. Qonun ijodkorligi jarayonining rasmiy tartibi yetarlicha tartibga solingan bo‘lsa-da, amaliyotda ayrim bosqichlar - xususan jamoatchilik muhokamasi va ekspert baholash - ko‘pincha platforma tarzda o‘tkaziladi. Buning asosiy sababi: qonun loyihasini tayyorlash bilan uni qabul qilish muddatlari o‘rtasida yetarli vaqt qoldirilmasligi va muhokamaga jalb etilgan tashkilotlarning ishtiroki majburiy emas, balki tavsifiy bo‘lib qolishidadir. Sifatli qonunchilik uchun muhokama bosqichiga minimal muddat belgilash va fuqarolar mulohazalarini hujjatli hisobga olish mexanizmini joriy etish zarur. Huquqiy aniqlik - normaning bir ma’noli tushunilishi; muvofiqlik - qonunning Konstitutsiya va boshqa aktlar bilan ziddiyatsizligi; ijro qobiliyati - talablarning amalda bajarilishi mumkinligi; barqarorlik - qonunga tez-tez o‘zgartirish kiritilmasligi; korrupsiogenlikdan xolislik - mansabdor shaxslar ixtiyoriyligiga yo‘l qo‘ymasligi shular jumlasidandir [7]. 2021-yilda tasdiqlangan Taraqqiyot strategiyasi normativ-huquqiy hujjatlarga iqtisodiy, ijtimoiy va genderga ta’sirini baholashni majburiy qildi [8]. Bu qadam qonunchilik sifati baholashida yangi bosqichni belgiladi. Sifat mezonlari rasmiy jihatdan belgilangan bo‘lsada, ularning amalda qo‘llanilishi bir xil emas. Masalan, “korrupsiogenlikdan xolislik” mezoni aksariyat hollarda faqat antikorrupsion ekspertiza hisobotida qayd etiladi, lekin qonun matnida aniq mexanizmlar orqali ta’minlanmaydi. Huquqiy aniqlik talabi ham amalda sinab ko‘rilmaydi: qonun qo‘llanilgandan keyingina sudlar va prokuratura izohlash zaruriyatiga duch keladi. Sifat nazoratini qonun qabul qilinishidan avval amaliy sinovlarga asoslash lozim. Adliya vazirligi tomonidan olib boriladigan huquqiy ekspertiza qonun loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi va ichki izchilligini tekshiradi. Antikorrupsion ekspertiza instituti esa barcha qonun loyihalarini korrupsiogenlik omillari mavjudligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi [9]. Huquqiy monitoring instituti ham jadal rivojlanmoqda: qabul qilingan qonunlarning amalda qo‘llanilishi, ijro darajasi va ijtimoiy samarasi kuzatilib boriladi. Adliya vazirligi 2023-yilgi monitoring hisobotiga ko‘ra, oxirgi besh yil ichida qonunlarga kiritilgan o‘zgartishlar o‘rtacha soni qisqardi: 2019-yilda bitta qonunga o‘rtacha 2,4 marta o‘zgartirish kiritilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,6 martaga tushgan [10]. Monitoring ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi ijobiy tendentsiya bo‘lsa-da, sifat baholashda miqdoriy ko‘rsatkichlardan tashqari mazmunan ham tahlil zarur. O‘zgartirishlar sonining kamayishi qonun sifatining oshganini anglatishi mumkin, ammo bu shuningdek muammolarning yashirilishi yoki ijro mexanizmlarining sustligi tufayli ham yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Monitoring tizimi mustaqil akademik muassasalar ishtirokida chuqurlashtirilganda uning obektivligi oshadi. Oliy Majlis nafaqat qonun qabul qiluvchi, balki ularning ijrosini nazorat qiluvchi organ hamdir. Parlamentning nazorat shakllari qatoriga: hukumat hisobotlarini eshitish, deputat so‘rovlari, parlamentariy tekshiruvlar

va vakolatli vakil (ombudsman) institutlari kiradi [11]. 2022 yilgi Oliy Majlis hisobotiga ko‘ra, Qonunchilik palatasi komitetlari 47 ta qonunning ijrosi yuzasidan nazorat tadbirlarini o‘tkazdi, shundan 12 tasida amalga oshirilmagan talablar aniqlanib, tegishli organlarga tavsiyalar yuborildi [12]. Parlament nazorati amaliyoti hali to‘liq institutlashgan emas. Nazorat tadbirlari aksariyat hollarda reaktiv - muammo yuzaga kelgandan keyin - amalga oshiriladi, proaktiv monitoring esa zaif. Komitetlar ko‘pincha qonunning ijtimoiy samara ko‘rsatkichlarini emas, rasmiy bajarilganlik faktini qayd etish bilan cheklanadi. Nazorat funktsiyasini kuchaytirish uchun komitetlarga mustaqil ekspertiza buyurtirish va hukumat organlaridan axborot talab qilish vakolatini kengroq berish zarur. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, qonunlar xalqning irodasini ifodalaydigan bo‘lishi uchun ularni ishlab chiqishda fuqarolarning faol ishtiroki ta’minlanishi zarur. 2022-yil 25-oktyabrdagi “Qonunchilik faoliyatining ochiq va shaffof bo‘lishi to‘g‘risida”gi Qonun regulation.gov.uz platformasi orqali jamoatchilik muhokamasi mexanizmini yanada mustahkamladi. fuqarolik jamiyatining qonun ijodkorligiga ishtiroki hali to‘liq shakllanmagan ekanligini, jamoat tashkilotlarining ko‘pchiligida huquqiy ekspertiza imkoniyati chegaralangan bo‘lib qolayotganini ta’kidlaydi [13]. Qonunchilik jarayonining ochiq bo‘lishi faqat platformalar orqali ta’minlanmaydi - muhim narsa fuqarolar mulohazalarining qaror qabul qilish jarayoniga real ta’siridir. Hozircha regulation.gov.uz orqali kelgan takliflarning qonun matniga qanday darajada kiritilgani to‘g‘risida rasmiy hisobot berilmaydi. Bu esa platformaning samaradorligini baholashni qiyinlashtiradi va fuqarolarning ishonchini zaiflashtiradigan omilga aylanishi mumkin. So‘nggi yetti yil davomida qonunchilik tizimida to‘rt asosiy yo‘nalishda tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Birinchi yo‘nalish - xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish: O‘zbekiston bir qator xalqaro konventsiyalarga qo‘shildi va milliy qonunchilik ularning talablariga mos keltirildi [14]. Ikkinchi yo‘nalish - raqamli transformatsiya: elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot, kiberxavfsizlik sohasida zamonaviy qonunchilik bazasi shakllandi. Lex.uz milliy ma’lumotlar bazasi va regulation.gov.uz platformasining joriy etilishi qonun ijodkorligini shaffof va fuqarolarga qulay qildi [15]. Uchinchi yo‘nalish - iqtisodiy qonunchilikni liberallashtirish: tadbirkorlik, investitsiyalar, soliq va bojxona munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar tizimli yangilandi, ortiqcha cheklovlar bekor qilindi. To‘rtinchi yo‘nalish - ijtimoiy qonunchilik: ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy ta’minot, mahalla instituti sohasida yangi qonunlar va o‘zgartirishlar kiritildi. Islohotlar ko‘lami va sur’ati ta’sirchan bo‘lsa-da, tezkor qonunchilik bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Xususan, ba’zi qonunlar qabul qilinganidan so‘ng amalga oshirish uchun zarur idoraviy normativ hujjatlar kechikib chiqarildi, bu esa qonunlar kuchga kirgan bo‘lsa-da, amalda ishlamaslik holatlarini yuzaga keltirdi. Bundan tashqari, qisqa muddatlarda qabul qilingan qonunlarning bir qismida keyinchalik tuzatishlar zarur bo‘ldi. Bu esa qonunchilik sur’atini sifat nazorati bilan muvozanatlashtirishning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston parlamenti qonun ijodkorligidagi roli MDH davlatlari tajribasi bilan qiyoslaganda o‘ziga xos jihatlar bilan ajralib turadi: ekspert baholash bosqichi nisbatan chuqurroq, biroq ijroiya hokimiyatining qonunchilik tashabbuskorligi ulushi yuqoriroq. G‘arb demokratiyalarida parlament komitetlari qonun loyihalarini mustaqil ekspertiza yordamida chuqur tahlil qiladi va hukumat versiyasiga muhim o‘zgartirishlar kiritadi. O‘zbekistonda bu amaliyot rivojlanib borayotgan bo‘lsa-da, hali to‘liq institutlashgan emas [16]. Xalqaro tajribaning o‘rganilishi qonunchilik tizimida ikkita muhim bo‘shliqni ko‘rsatmoqda. Birinchisi - o‘tish davri iqtisodiyoti davlatlarida parlament ijro munosabatlarining muvozanati masalasi: qonun ijodkorligida ijroiya tashabbusining kuchli bo‘lishi tezkor islohotlar uchun qulay bo‘lsa-da, uzoq muddatda qonunlar tashabbuskorlik mantig‘iga emas, xalq ehtiyojiga asoslangan bo‘lishi uchun parlamentning mustaqil tadqiqot imkoniyatlarini oshirish zarur. Ikkinchisi - qonun ijrosini baholashda xalqaro metodologiyalardan to‘liq foydalanish hali yo‘lga qo‘yilmagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston parlamentining qonun ijodkorligidagi roli so‘nggi yillarda sezilarli darajada kuchaydi. Ikki palatali tizim, ekspert baholash mexanizmlari, jamoatchilik ishtirokini ta’minlovchi platformalar va raqamli infratuzilma normativ-huquqiy bazaning sifat ko‘rsatkichlarini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Biroq bir qator tizimli muammolar hali o‘z yechimini topganicha yo‘q: qonunlarning ijro mexanizmlari ba’zan noaniq va yetarli darajada ishlab chiqilmagan holda belgilanmoqda; jamoatchilik muhokamasi aksariyat hollarda nominal tus olmoqda; qonun ijrosi ustidan parlament nazorati reaktiv xarakter kasb etmoqda; qonunlar bilan idoraviy hujjatlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirishda kechikishlar kuzatilmoqda. Birinchidan, qonun loyihalarining ta’sir baholash tizimini to‘liq joriy etish. Har bir muhim qonun loyihasiga iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy ta’sir tahlili ilova qilinishi, ushbu tahlil mustaqil ekspert muassasasi tomonidan tayyorlanishi va jamoatchilikka ochiq e’lon qilinishi kerak. Bu qonun qabul qilinishidan avval uning amaliy samaradorligini baholash imkonini beradi va keyinroq tuzatishlar kiritish zaruriyatini kamaytiradi. Ikkinchidan, parlamentning mustaqil ilmiy-tahliliy xizmatini kuchaytirish. Qonunchilik palatasi va Senat komitetlari hukumatdan mustaqil tarzda qonun loyihalarini tahlil qila oladigan professional apparatga ega bo‘lishi zarur. Buning uchun parlament qoshida yuridik, iqtisodiy va ijtimoiy tadqiqotlar bo‘yicha ixtisoslashgan tahliliy markaz tashkil etilishi maqsadga muvofiq. G‘arbiy Yevropa parlamentlari tajribasi bunday markazlarning qonunlar sifatini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashini isbotlaydi. Uchinchidan, qonun ijrosi bo‘yicha ex-post baholash institutini joriy etish. Har bir muhim qonun qabul qilinganidan ikki yil o‘tgach, uning amaliy ta’siri va ijtimoiy samarasi majburiy tarzda baholanishi kerak. Ushbu baholash natijalari parlament majlislarida muhokama qilinib, zarur o‘zgartirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim. Bu mexanizm “qonun chiqardik va unutdik” holatiga barham beradi va qonunchilikni uzluksiz sifatini oshirish jarayoniga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). Normativ-huquqiy hujjat, 2023. Url: https://lex.uz/docs/-6445145
2. Najimov M. K. “Norma ijodkorligi”. Darslik. Toshkent: O‘quv qo‘llanma, 2018. Url: https://library-tsul.uz/ru/norma-izhodkorligi-nazhimov-m-k-2018
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-4947-son: O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. Farmon, 2017. Url: https://lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlis to‘g‘risidagi Qonuni. Qonun, 2002. Url: https://lex.uz/docs/-39572
5. O‘zbekiston Respublikasi. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi” Qonun (№ 160-II). Qonun, 2000. Url: https://lex.uz
6. Xasanov A. X., Tursunov I. B. “Qonun sifati va huquq ijodkorligi muammolari”. Davlat va huquq, 2021. – B.18–25.
7. Sobirov K. S. “Qonunchilik jarayonida ekspert baholashning roli”. O‘zbekiston huquqi, 2022. – B. 52–60.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-6165-son: 2021–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi. Farmon, 2021. Url: https://lex.uz
9. Ismoilov P. I. “Antikorrupsion ekspertiza: xalqaro tajriba va O‘zbekiston amaliyoti”. Huquqshunoslik, 2022. – B. 88-97.
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. 2023-yilgi normativ-huquqiy hujjatlar monitoringi hisoboti. Hisobot, 2024.

11. Rahimov R. A. “Parlament nazorati: nazariya va amaliyot”. Monografiya. Adolat nashriyoti, 2020.
12. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. 2022-yilgi faoliyat to‘g‘risida hisobot. Hisobot, 2023.
13. Baxtiyorov N. R. “Fuqarolik jamiyati va qonun ijodkorligi”. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2023. – B. 44-51.
14. Qodirov A. A. “Xalqaro huquqiy standartlar va milliy qonunchilik muvofiqligi”. Taqqosiy huquq, 2021. – B. 61-70.
15. Ergashev B. E. “Raqamli texnologiyalar va qonunchilik jarayoni”. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va huquq, 2022. – B. 15-23.
16. Qosimov B. N. “Huquqiy siyosat va normativ-huquqiy baza sifati”. O‘zbekiston huquqi, 2023. – B. 18-27.
17. Yusupova M. N. O‘zbekistonda qonun ijodkorligining rivojlanish tendensiyalari. Huquq va hayot, 2022. – B. 34-41.
18. Alijonov T. M. “Huquqiy monitoring: metodologiya va amaliyot”. Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti, 2021.
19. Shavkat Mirziyoyev “Qonun ustuvorligini ta’minlash va inson manfaatlarini himoya qilish” Nutq, 2017.
20. O‘zbekiston Respublikasi. “Qonunchilik faoliyatining ochiq va shaffof bo‘lishi to‘g‘risidagi” Qonun, 2022. Url: https://lex.uz
21. Usmonov F. F. (2023). “O‘zbekiston parlamenti faoliyatining xalqaro taqqosiy tahlili”. Davlat boshqaruvi va huquq, 2023. – B. 77-85.